

SIFAT SOHASIDAGI SIYOSAT

«UzXCMG» MCHJ QK ning O‘zbekiston mashinasozlik bozorida qurilish va yo‘l-qurilish texnikalari ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchilikni saqlash hamda jahon mashinasozligi tarmog‘iga faol integratsiyalashish bo‘yicha missiyasi va strategik maqsadlariga muvofiq:

Bizning asosiy qadriyatlarimiz – iste’molchilar, korxona xodimlari, yetkazib beruvchilar, dilerlar va aksiyadorlardir.

«UzXCMG» MCHJ QK ning sifat sohasidagi bosh maqsadi – iste’molchilar talabi va kutganlariga javob beradigan, raqobatbardosh mahsulot va xizmatlar yaratish va korxonaning barqaror moliyaviy holatini ta’minlashdir.

Maqsadga erishishning asosiy vositasi – ISO 9001 talablariga mos, jarayonlarga asoslangan yondashuv va xavf-yo‘naltirilgan fikrlashga tayangan sifat menejmenti tizimini joriy etish va takomillashtirib borishdir.

Maqsad quyidagi vazifalarni amalga oshirish orqali ta’minlanadi:

- iste’molchilarning amaldagi va istiqboldagi talab va kutganlarini tizimli tahlil qilish hamda mahsulotimizdan qoniqish darajasini obyektiv baholash;
- o‘zaro manfaatlilik va doimiy takomillashtirish tamoyillariga asoslangan yetkazib beruvchilarni tanlash va rivojlantirishning samarali tizimini yaratish;
- har bir xodimni ishlab chiqariladigan mahsulot sifatini uzluksiz yaxshilash jarayoniga jalb etishga yordam beradigan, qulay mehnat muhitini yaratish, shuningdek, sifat sohasida xodimlarni muntazam o‘qitish;
- ishlab chiqish bosqichida zamonaviy metodlar, loyiha vositalari va ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash orqali mahsulot sifatini rejalashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonida sifatni ta’minlash mexanizmlarini joriy etish orqali mahsulot sifatini boshqarish;
- mahsulot yaratish jarayonlarini belgilangan talablarga muvofiq boshqarish;
- davlat buyurtmasi asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar hamda boshqa mahsulotlarning qonunchilik talablari va iste’molchilar talablariga muvofiqligini ta’minlash;
- ishlab chiqariladigan mahsulot va servis xizmatlari sifat ko‘rsatkichlarini boshqarish uchun jarayonlarni axborot bilan ta’minlash;
- malakali texnik xodimlar tomonidan, zamonaviy universal va maxsus uskunalar hamda asboblardan foydalangan holda professional servis xizmatlarini ko‘rsatish;
- sifatni yaxshilash bo‘yicha, jumladan davlat buyurtmalari bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlarning samaradorligini ta’minlash, xavflarning nojo‘ya ta’sirini oldini olish va iste’molchilarning kelajakdagi ehtiyoj va kutganlarini hisobga olish.

Ushbu vazifalarni bajarish uchun «UzXCMG» MCHJ QK rahbariyati o‘z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

- mazkur Siyosatni korxonaning barcha xodimlariga yetkazish va uni to‘liq tushunishni ta’minlash;
- jarayonlarga asoslangan yondashuv va xavf-yo‘naltirilgan fikrlashni qo‘llab-quvvatlash;
- sifat menejmenti tizimining samarali ishlashini va uni doimiy ravishda takomillashtirib borishni ta’minlash;
- ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida zarur resurslar, mas’uliyat va vakolatlarni to‘g‘ri taqsimlash.